

G'AFUR G'ULOMNING POETIK MAHORATI

Ro'zmatova Sabrina Ashurmatovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy Filologiyasi
kafedrası 3-kurs talabasi*

**E-mail: sabrina.ruzmatova77@icloud.com
+998-33-052-27-18**

Ilmiy rahbar: **Sultanova Lola Akmalovna**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik fakulteti f.f.d(PhD)*

**E-mail: lola_sultanova@inbox.ru
+99890-932-90-83**

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotimiz orqali biz O'zbekistonning taniqli yozuvchisi G'afur G'ulomning hayot yo'lini o'rganib chiqdik. Shoir butun umri davomida ko'plab she'rlar, qissalar va dostonlar yozdi. Umuman olganda o'zining 63 yil umri davomida Sho'ro siyosati va komfirga mafkurasi ta'sirida el-yurtini yuksak ko'tarinkilik ruhida yashash va mehnat qilishga chorladi. Tadqiqotimiz davomida shoirning hayot so'qmoqlari, mehnati va ijodining mevalarini hamda poetik mahoratini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Qo'rg'ontegi mahallasi, rus-tuzem maktabi, avtobiografik qissa, Navoiy, Sa'diy, Hofiz, Fuzuliy, Injil, Qur'on, Bobil, Mayakovskiy, «O'zbekiston xalq shoiri» yuksak unvoni.

G'afur G'ulom (1903-yil 10-may — 1966-yil 10-iyun) — o'zbek yozuvchisi va shoiri. 1903-yilning 10-mayida Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida, dehqonlar oilasida tug'ilgan. To'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan yetim qolgan. G'afur G'ulom avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim olgan. 1916- yilning kuzida G'ofur o'qishga kiradi. Onasining vafotidan so'ng (otasi avvalroq vafot etgan), u ishlashga majbur bo'lgan. Ko'plab kasblarda o'zini sinab ko'rgach, u nihoyat, matbaaga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi, so'ngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. Toshkent pedagogika institutini tamomlagan. 1919-yildan 1927-yilgacha u o'qituvchi, maktab direktori, Ma'naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo'lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi. „Shum bola“ avtobiografik qissasida ijodkorning bolaligi, asr boshidagi Toshkent hayoti tiniq tasvirlangan.

G'afur G'ulom yoshligidan bilimga chanqoq yigit bo'lgan. Navoiy, Sa'diy, Hofiz, Fuzuliy asarlarini sevib o'qigan. Oilani boqish tashvishi tufayli Oliy maktablarda o'qiy olmaydi. Sakkiz oylik muallimlar tayyorlash kursinigina bitkazadi va mustaqil o'qish orqali zamonasining ilg'or ziyolisi darajasiga ko'tariladi. Bir vaqtning o'zida ikkita maktabga mudirlik qildi, shahar maorifida ishladi. Turli gazeta-jurnallarda adabiy xodim, mudir, bosh muharrir o'rinbosari vazifalarida ishladi.

Gʻafur Gʻulom oʻzbek adabiyotining isteʼdodli ijodkori. U adabiyotimizni turli janrlar bilan boyitdi. Sheʼriyatda, publitsistika va felʼetonchilikda, hajviy hikoya va yumoristik qissachilikda, hamda tarjimachilikda oʻzining butun salohiyatini koʻrsatgan yirik namoyondadir.

Gʻafur Gʻulomning baʼzi sheʼrlari tarixiy hodisalar, maʼlumotlar va shaxslar obrazini aks ettirish asosiga qurilgan. Bunday asarlar tarixning badiiy solnomasi, tarixiy shaxs taqdiri, qiyofasining inʼikosi qadar aniqlik kasb etadi "Turksib yoʻllarida", "Hamza xotirasi", "Insoniyat tarixining birinchi kosmonavtiga" sheʼrlariga shunday xususiyat xosdir.

Gʻafur Gʻulom Sharq va Gʻarb tarixi, falsafasi, madaniyatini favqulodda chuqur bilgan alloma kishi edi. Shu bois uning aksar sheʼrlarida Injil-u Qurʼondan tortib Bobil, kattayu-kichik tarixiy hodisalar, maʼlumotlar, u yoki bu shaxs, ular bilan aloqador faktlar, jahon xalqlarining urf-odatlaridagi chizgilari, tarixiy joy nomlari bilan aloqador fikrlar asarning badiiy toʻqimasiga singdirib yuboriladi. Gʻafur Gʻulom butun ijodi davomida taqvim tarzida koʻplab sheʼrlar yozdi. 1-may, 7-oktabr, Konstitutsiya kuni, partiya va komsomol syezdlari, adabiy oʻn kunliklar, sotsialistik musobaqa, paxta rejasining bajarilishi singari kundalik, oʻtkinchi hodisa va voqealarga bagʻishlangan bunday sheʼrlar adabiyot tarixida ham, muallif ijodida ham sezilarli iz qoldirmadi. Bu hol shoirning oʻziga ham sir emas edi. Zero, bunday sheʼrlarning koʻpi oʻzlarini hurmat qilgan shoirlarning nainki «Tanlangan asarlari», hatto, muntazam chiqib turgan toʻplamlariga ham kiritilmas edi. Gʻafur Gʻulom ham bundan istisno emas. Biroq shuni ham taʼkidlash lozimki, gʻafurona buyuklik va donishmandlik bilan sugʻorilgan falsafiy obrazlar uning taqvim sheʼrlarida ham uchrab turadi.

Gʻafur Gʻulom, shuningdek, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmet, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va boshqalarning asarlarini oʻzbek tiliga mohirona tarjimasi, shuningdek, adabiyotshunoslik va publitsistik maqolalari bilan mashhur.

Gʻafur Gʻulomning dunyo qarashi va badiiy didining shakllanishida Vladimir Mayakovskiy asarlari katta taʼsir koʻrsatgan. Gʻafur Gʻulom oʻzining maqolalaridan birida shunday yozadi: "Men... rus mumtoz ijodkorlarini bilaman va ularni sevaman va ularning koʻplab asarlarini ona tilimga tarjima qildim. Lekin "men uchun vazn, lugʻat, timsol, sheʼrning ohang tuzilishi sohalarida eng serqirra va cheksiz imkoniyatlarni ochgan" Mayakovskiyning shogirdiman, deyishni istayman". Mayakovskiy satirasidagi dargʻazab, tanqidiy kinoya, lirikasidagi bagʻoyat ulkan tuygʻu kuchidan tashqari, men oʻzimda... uning usullarining dovyurak notqlik kuchini, metaforalar jasorati, mubolagʻalar ifodaliligini jandashga harakat qildim.

Hatto, usulli, ohangli va ma'no ifodaliligini oshiruvchi she'r qurilishidan ham o'zbek she'r tuzimida foydalanishimga to'g'ri keldi". Bular G'ofur G'ulomning ko'plab she'rlarida namoyondir, masalan: "Turksib yo'llarida", "Ona yer", "Yashasin, tinchlik!".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joiz-ki, G'afur G'ulom — O'zbekistonning taniqli yozuvchisidir. G'afur G'ulom so'nggi nafasigacha ijod etdi, mehnat qildi. Uzoq yillar davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasining til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Badiiy asarlar bilan bir qatorda ko'plab ilmiy maqolalar yozdi, tarjimalar qildi. O'zining asarlari ham o'nlab tillarga o'girildi. G'ofur G'ulomning she'riyati va nasrida o'zbek xalqi tarixi o'zining badiiy timsolini topdi. Mehnatlari evaziga u O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylandi. Respublika Oily kengashiga deputat bo'ldi. Unga «O'zbekiston xalq shoiri» yuksak unvoni berildi. Badiiy asarlari sovetlar mamlakatining eng yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi. Uning o'n ikki jilddan iborat mukammal asarlar to'plami bosilib chiqdi. Eng asosiysi o'z kelajak avlodlari uchun bitmas-tuganmas boylik qoldirdi va ular uchun yetarlicha o'rnatib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston gazetasi 2021-yil 25-mart
2. Bolalar shoiri va nosiri G'afur G'ulom to'plam.
3. Google.com
4. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
5. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
6. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. -T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
7. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. -T.: O'qituvchi, 2011, 260 bet.
8. uz.m.wikipedia.org